

## O'ZBEKISTONDA MAVJUD IJTIMOY HIMOYA TIZIMINING HOLATI VA JTIMOY HIMOYA TIZIMINING INQIROZ DAVRIDA TUTGAN O'RNI

**Tulegenova Aydin**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitet talabasi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan beqarorlik, pandemiyalar, geosiyosiy ziddiyatlar va global moliyaviy muammolar natijasida iqtisodiy inqirozlar tez-tez uchrab turibdi. Bunday inqirozlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki aholining turmush darajasiga, ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar — ishsizlar, kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, nafaqaxo'rlar uchun inqiroz davri yanada og'ir kechadi.*

*Shunday sharoitda ijtimoiy himoya tizimining samarali faoliyati nihoyatda muhim bo'lib, aholining eng zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning daromadlarini saqlab qolish, ishsizlikni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Inqirozga qarshi kurashishda ijtimoiy himoya tizimi nafaqat yordam ko'rsatish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.*

**Kalit so'zlar:** *inqiroz, ijtimoiy himoya, moliyaviy muammolar, byudjet, ijtimoiy adolat, homiyar, COVID-19 pandemiyasi, raqamlashtirish.*

**Abstract:** *Today, as a result of instability in the world economy, pandemics, geopolitical conflicts and global financial problems, economic crises are becoming more frequent. Such crises have a negative impact not only on economic stability, but also on the standard of living of the population, social stability. The crisis period is especially difficult for those in need of social protection - the unemployed, low-income families, people with disabilities, pensioners.*

*In such conditions, the effective functioning of the social protection system is extremely important and is the main tool for supporting the most vulnerable segments of the population, maintaining their income, reducing unemployment and ensuring social equality. In combating the crisis, the social protection system plays an important role not only in providing assistance, but also in ensuring social stability.*

**Keywords:** *crisis, social protection, financial problems, budget, social justice, sponsors, COVID-19 pandemic, digitalization.*

**Аннотация:** *Сегодня, в результате нестабильности мировой экономики, пандемий, геополитических конфликтов и глобальных финансовых проблем, экономические кризисы становятся все более частыми. Такие кризисы негативно влияют не только на экономическую стабильность, но и на уровень жизни населения, социальную стабильность. Кризисный период особенно сложен для тех, кто нуждается в социальной защите – безработных, малообеспеченных семей, инвалидов, пенсионеров.*

*В таких условиях эффективное функционирование системы социальной защиты имеет чрезвычайно важное значение и является основным инструментом поддержки наиболее уязвимых слоев населения, сохранения их доходов, снижения*

*безработицы и обеспечения социального равенства. В борьбе с кризисом система социальной защиты играет важную роль не только в оказании помощи, но и в обеспечении социальной стабильности.*

**Ключевые слова:** кризис, социальная защита, финансовые проблемы, бюджет, социальная справедливость, спонсоры, пандемия COVID-19, цифровизация.

## KIRISH

Iqtisodiy inqiroz — bu mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida keskin pasayish, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlikning ortishi, moliyaviy muvozanatning buzilishi kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishidir. Inqirozlar turli sabablarga ko'ra vujudga keladi va ularning har biri ijtimoiy sohalarga bevosita ta'sir qiladi.

Iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

☒ Resurslar yetishmovchiligi – tabiiy resurslarning yetishmasligi yoki ularning narxining keskin o'zgarishi;

☒ Global moliyaviy inqirozlar – bank tizimining noto'g'ri ishlashidan, valyuta kursining o'zgarishidan yoki investitsiya yo'nalishlarining noto'g'ri shakllanishidan kelib chiqadi (bank tizimidagi muammolar, valyuta inqirozi);

☒ Global inqirozlar – global bozorlarda yuzaga kelgan inqirozlar (masalan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz) ham milliy iqtisodiyotlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pandemiya yoki tabiiy ofatlar (COVID-19 kabi kasalliklar sababli iqtisodiy faoliyatning to'xtashi);

☒ O'zgarishlar siyosatda – hukumatning iqtisodiy siyosatini noto'g'ri olib borishi ham iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin, ichki boshqaruvdagi muammolar (byudjet taqchilligi, korrupsiya, noto'g'ri siyosiy qarorlar).

Iqtisodiy inqiroz eng avvalo mehnat bozori orqali aholiga ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarining yopilishi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi natijasida ishsizlik keskin ortadi. Ishsizlik esa o'z navbatida aholining real daromadlarining kamayishiga olib keladi. Qashshoqlik darajasi oshib boradi, chunki daromadlar kamayadi, narxlar esa o'sishda davom etadi. Natijada aholining eng zaif qatlamlari, ya'ni kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar va bolalar og'ir ahvolda qoladi. Daromadlar va iste'mol xarajatlari o'rtasidagi tafovut kuchayib, ijtimoiy tengsizlik kengayadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlik uchun ham xavf tug'diradi.

Ijtimoiy himoya tizimi inqiroz davrida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki inqiroz sharoitida aholining turli qatlamlari, ayniqsa, zaif guruhlar (kambag'allar, ishsizlar, nogironligi bor shaxslar) jiddiy iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Inqirozlar ijtimoiy himoya tizimiga ikki xil ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Salbiy ta'sir – iqtisodiy inqirozlar davlatning byudjetini qisqartiradi, bu esa ijtimoiy himoya dasturlariga ajratiladigan mablag'larni kamaytiradi. Shuningdek, inqirozlar davomida daromadlar kamayadi, bu ijtimoiy himoya tizimining samarasizligini keltirib chiqarishi mumkin.

2. Ijoiy ta'sir – inqirozlar ijtimoiy himoya tizimining muhimligini ko'rsatadi va davlatni ushbu tizimni kuchaytirishga undaydi. Bu davrda ijtimoiy himoya mexanizmlari yanada kuchayadi va aholi uchun yangi yordam dasturlari ishlab chiqiladi.

Asosiy qism

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ijtimoiy himoya tizimi mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bosqichma-bosqich shakllantirildi. Dastlabki yillarda ijtimoiy yordamlar asosan moddiy yordam, pensiya va nafaqalar shaklida bo'lib, ular davlat byudjeti hisobidan ta'minlandi.

2000-yillarning boshlarida ijtimoiy himoya tizimida islohotlar boshlangan bo'lib, bu jarayonda xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki va BMTning taraqqiyot dasturlari bilan hamkorlikda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy yordamlarni manzilli taqdim etish bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi. Bu bosqichda ijtimoiy himoya tizimi asosan subsidiya va nafaqa dasturlari orqali amalga oshirildi.

Hozirgi holat va amalga oshirilayotgan islohotlar. So'nggi yillarda O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2023-yil 1-iyuldan boshlab, mamlakatda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlar orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi markazlashtirildi va aholiga yaqinlashtirildi. Markazlar ijtimoiy xodimlar guruhlarini tomonidan har bir xonadon aholini o'rganib, oilalarning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish, ehtiyojmand oilalar bilan individual ishlash va ularni zarur yordamlar bilan ta'minlashni amalga oshirmoqda.

– 2024-yil 13-dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga doir yangi tashabbuslar bildirildi. Yig'ilishda quyidagi natijalarga erishilganligi ta'kidlandi:

- 102 ta ijtimoiy xizmat mahallalarda yo'lga qo'yildi;
- Ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, 95 ming muhtoj odamga yordam ko'rsatdi;
- 51 ming odamga nogironlik belgilandi;
- 26 ming nafari protez oldi;
- 4 ming yolg'iz keksa aniqlanib, ularga uyining o'zida parvarish tashkil etildi;
- 5 ming nafar bola bog'cha va maktablarga joylashtirildi.

Bunday manzilli ishlar tufayli xalq qabulxonalarini va hokimliklarga ijtimoiy xizmat va yordam bo'yicha murojaatlar 35 foizga kamaydi.

Shuningdek, viloyat va tumandagi 14 ming rahbar 75 ming kambag'al oilaga biriktirilib, ular bilan individual ishlash yo'lga qo'yildi. Natijada bu oilalardagi 17 ming odam doimiy ishga joylashtirildi, tadbirkorlik va tomorqa orqali 14 ming aholining daromadi oshirildi. 30 ming bola bog'cha, to'garak va kasbga o'qitish bilan qamrab olindi, 45 ming muhtoj aholiga tibbiy yordam ko'rsatildi.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida ijtimoiy himoya tizimi jamiyatda barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy yordamlar, ishsizlik nafaqasi, oziq-ovqat yoki pul shaklidagi subsidiyalar orqali aholining og'ir vaziyatdan chiqishiga yordam beriladi. Shuningdek, inqiroz sharoitida ijtimoiy xizmatlar (tibbiy yordam, psixologik ko'mak, vaqtincha boshpana) va xayriya tashkilotlarining faolligi ham oshadi. Ijtimoiy himoya tizimi nafaqat yordam ko'rsatadi, balki fuqarolarning

davlatga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Biroq, iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat byudjetining kamayishi sababli ijtimoiy himoya tizimining moliyalashtirish hajmi cheklanishi mumkin. Shu bois bu tizimning moslashuvchanligi va barqarorligi juda muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya tizimi davlatning ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, jamiyatning eng zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya - bu insonning asosiy huquqlarini himoya qilish, kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy beqarorlik, tabiiy ofatlar yoki boshqa shoshilinch holatlar yuzaga kelganda aholining muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan tizimdir. O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrda ijtimoiy himoya tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, 2017-yildan so'ng amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar va davlat dasturlari aholi uchun ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamni modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Biroq, so'nggi yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar va boshqa ijtimoiy va iqtisodiy muammolar ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini yana bir bor sinab ko'rdi.

Ijtimoiy himoya tizimining barqarorlikni ta'minlashdagi roli:

- Inqiroz davrida ijtimoiy himoya tizimi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:
- Ijtimoiy-iqtisodiy zararni kamaytirish – fuqarolarning minimal hayot darajasini ta'minlab, iqtisodiy barqarorlikni ushlab turadi.
- Aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash – daromad manbai yo'qolgan yoki keskin qisqargan aholi guruhlariga moddiy va xizmat ko'rishida yordam ko'rsatadi.
- Bandlikni rag'batlantirish – ishsiz qolgan aholiga qayta tayyorlov kurslari, bandlik dasturlari orqali ish topishda yordam beradi.
- Ijtimoiy noroziliklarning oldini olish – yordam mexanizmlari orqali jamiyatdagi norozilik, noravshanlik va beqarorlikni kamaytiradi.
- Uzoq muddatli tiklanishni qo'llab-quvvatlash – inqirozdan so'ng aholining ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Ijtimoiy yordam va subsidiya dasturlari

COVID-19 pandemiyasi davrida O'zbekiston hukumati tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator ijtimoiy yordam va subsidiya dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu dasturlar qisqa muddatli inqiroz holatidan chiqishga emas, balki uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga ham qaratilgan edi.

1. Ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamlar kengaytirildi

Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ajratiladigan nafaqalar (yolg'iz keksalar, nogironlar, bolali oilalar, beva ayollar va boshqalar uchun) soni va hajmi oshirildi. 2020-yilda respublika bo'yicha qo'shimcha 400 mingdan ortiq fuqaro ijtimoiy yordamga qo'shildi, bu avvalgiga nisbatan sezilarli kengayish edi. Har oyda oila boshlig'i ishidan ajragan yoki daromadsiz qolgan oilalarga moddiy yordam to'lovlari tayinlandi (mahalla orqali aniqlangan ro'yxat asosida).

2. "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati

Prezident tashabbusi bilan 2020-yil bahorida tashkil etilgan bu harakat doirasida mahallalarda ehtiyojmand oilalarni aniqlash va ularga bevosita yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Davlat budjeti, homiylar va tadbirkorlar hisobidan oziq-ovqat, dori-darmon, gigiyena vositalari yetkazildi. Harakatda xalqning o'zi faol ishtirok etdi, bu esa ijtimoiy birdamlikning kuchayishiga xizmat qildi.

### 3. Subsidiya dasturlari va kompensatsiyalar

Ishsiz fuqarolarni vaqtincha band qilish va ularga subsidiya asosida ish haqi to'lash mexanizmlari joriy etildi (masalan, obodonlashtirish, sanitariya ishlari, qishloq xo'jaligi). Ijara to'lovlari uchun subsidiyalar: ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan ijara uylarida yashash xarajatlarini qoplash maqsadida subsidiya berildi. Energiya va kommunal xizmatlar uchun chegirmalar joriy qilindi yoki to'lovlar muddatlari kechiktirildi.

### 4. Raqamli yordam tizimlari

“my.gov.uz” portali orqali yordam olish uchun ariza topshirish imkoni yaratildi. Bu orqali yordamga muhtojlar o'z murojaatlarini onlayn tarzda bildirishi mumkin bo'ldi. Davlat xizmatlari markazlari orqali ariza topshirish imkoniyati saqlanib qoldi, bu esa internetdan foydalana olmaydigan qatlamlarga qulaylik yaratdi.

### 5. Mahalla institutining faollashtirilishi

Ijtimoiy yordam dasturlarini mahalla orqali muvofiqlashtirish tizimi kuchaytirildi. Mahalla raislari, xotin-qizlar maslahatchilari va profilaktika inspektorlari yordamga muhtojlarni joyida aniqlash va ro'yxatga olish bilan shug'ullandi. Bu yondashuv mahalliy darajada muammolarni tezroq aniqlash va yordamni manzilli taqsimlash imkonini berdi.

### 6. Ijtimoiy himoya agentligi faoliyati

2023-yildan boshlab Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati kengaytirildi va u yagona markazlashgan ijtimoiy yordam tizimini yaratish yo'lida ishlamoqda. Agentlik yordam mezonlarini standartlashtirish, korrupsion holatlarni kamaytirish va yordam ko'rsatishni avtomatlashtirishga intilmoqda. Ushbu choralar qisqa muddat ichida aholi orasidagi ijtimoiy zo'riqishni kamaytirishga xizmat qildi va pandemiyaning og'ir ijtimoiy oqibatlarini yumshatishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimi keyingi yillarda sezilarli darajada isloh qilinib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator dasturlar joriy qilindi. Davlat tomonidan nafaqalar, moddiy yordamlar, ishsizlik nafaqasi, nogironlik bo'yicha to'lovlar va boshqa ko'mak turlari amalga oshirilmoqda.

“Yagona ijtimoiy reyestr” tizimining joriy etilishi yordamga muhtoj fuqarolarni aniqlashda aniq va shaffof mexanizmni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali manzilli yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Inqirozga qarshi davlat siyosati va ijtimoiy yordam choralari:

COVID-19 pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz davrida O'zbekiston hukumati tomonidan bir qator inqirozga qarshi choralar ko'rildi. Jumladan:

- Ishsizlik darajasini kamaytirish maqsadida vaqtinchalik ish o'rinlari yaratildi;

- Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, oziq-ovqat paketlari va kommunal xizmatlar uchun subsidiyalar ajratildi;
- Ijtimoiy nafaqalar miqdori oshirildi;
- Ijtimoiy himoya vazirligi va Mahalla tizimi orqali muhtojlarga tezkor yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimi so'nggi yillarda jiddiy islohotlarga duch keldi. Mustaqillik yillarida tizimning yaxshilanishi uchun bir qancha chora-tadbirlar ko'rildi, lekin iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar va boshqa global muammolar ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini sinovdan o'tkazdi. Mavjud tizimning afzalliklari va kamchiliklari bor, va bu tizimni yanada takomillashtirish uchun bir qator muhim qadamlar tashlash zarur.

O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimi asosan kambag'allarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy beqarorlikda yordam berishga qaratilgan. Biroq, tizimda mavjud bo'lgan ba'zi muammolar, masalan, ijtimoiy yordamning manzilliligi, resurslar yetishmovchiligi va shaffoflikni oshirish zarurati hali ham o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va kuchi sinovdan o'tdi. Bu davrda O'zbekiston hukumati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida muhim qadam bo'ldi, biroq tizimni yanada samarali va zamonaviylashtirish zarurati o'z o'rnida turibdi.

Tizimning samaradorligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar zarur:

Raqamlashtirish: Ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish orqali fuqarolarni tezroq va aniqroq yordam bilan ta'minlash mumkin. Onlayn platformalar orqali yordam berish tizimini joriy etish va ma'lumotlarni samarali boshqarish bu borada muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tajriba: Xalqaro amaliyotlarni o'rganish va ilg'or tajribalardan foydalanish orqali tizim samaradorligini oshirish mumkin. Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy himoya tizimlaridan olingan tajribalar yordamida O'zbekistonda tizimni modernizatsiya qilishga erishish mumkin.

Samarali resurslar taqsimoti: Ijtimoiy himoya resurslarini to'g'ri taqsimlash, ayniqsa, moliyaviy resurslarni kam ta'minlangan va ijtimoiy ehtiyojlari yuqori bo'lgan qatlamlarga yo'naltirish zarur. Tizimda mavjud bo'lgan mablag'larni samarali taqsimlash orqali ijtimoiy yordam samaradorligini oshirish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimi uchun yangi tashabbuslar va yondoshuvlar zarur. Har bir fuqaro uchun teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar davom ettirilishi kerak.

Xulosa

Iqtisodiyotdagi inqirozlar, jumladan pandemiyalar, tabiiy ofatlar yoki moliyaviy inqirozlar, aholining zaif qatlamlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda, ijtimoiy

himoya tizimlari nafaqat inson huquqlarini ta'minlash, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy tinchlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, pandemiya kabi global inqirozlar davrida ko'plab mamlakatlar ijtimoiy himoya tizimlarining ahamiyatini yanada chuqur anglab yetdilar va yangi strategiyalarni joriy etdilar. Shu jihatdan olib qaralganda, O'zbekiston tajribasi ham dolzarb bo'lib, so'nggi yillarda ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan islohotlar, xususan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi mexanizmlar joriy etilishi inqirozning og'ir oqibatlarini yumshatishda muhim vosita bo'ldi.

Inqiroz sharoitida ijtimoiy himoya tizimining uzluksiz ishlashi va moslashuvchanligi — davlatning barqarorligining asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. U iqtisodiy tanglikni yumshatish, ijtimoiy norozilikning oldini olish va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida ijtimoiy himoyaning raqamlashtirilgan, samarali va inklyuziv modelini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida turadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotdagi inqirozlar sharoitida samarali ijtimoiy himoya tizimlari mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, tizimlarni moslashuvchan, raqamlashtirilgan va manzilli qilish orqali inqirozga samarali javob berish mumkin. O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish va inqiroz davrida samarali javob berish uchun xalqaro tajribalarni inobatga olish muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-himoya--mehr-va-komak-tizimi?utm\\_source](https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-himoya--mehr-va-komak-tizimi?utm_source)
2. [https://president.uz/oz/lists/view/7763?utm\\_source](https://president.uz/oz/lists/view/7763?utm_source)
3. [https://president.uz/oz/lists/view/7467?utm\\_source](https://president.uz/oz/lists/view/7467?utm_source)
4. [https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency/?utm\\_source](https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency/?utm_source)
5. [https://uz24.uz/uz/articles/ihma-24-12-28?utm\\_source](https://uz24.uz/uz/articles/ihma-24-12-28?utm_source)
6. [https://kun.uz/news/2024/06/03/ozbekistonda-ijtimoiy-himoya-oluvchi-oilalar-soni-malum-qilindi?utm\\_source](https://kun.uz/news/2024/06/03/ozbekistonda-ijtimoiy-himoya-oluvchi-oilalar-soni-malum-qilindi?utm_source)
7. Stat.uz — Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлигининг расмий сайти. URL: <https://stat.uz> (мурожаат қилинган сана: 10.05.2025).